



“SOG’LIQNI SAQLASHDA YANGI YONDASHUVLAR”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026

**BIOECOLOGICAL DIVERSITY OF MEDICINAL PLANTS IN
SURKHANDARYA REGION AND PROSPECTS FOR THEIR USE
IN TRADITIONAL MEDICINE**

Qurbonova Ra'no Abdimo'min qizi

Student Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Scientific Supervisor: Nurmatov R.T.

Abstract

The study comprehensively analyzes the systematic, ecological, and bioecological characteristics of medicinal flora in Surxandarya region. The distribution of medicinal plants across families, life forms based on Raunkier's system, and geographical distribution by zones were investigated. The accumulation of bioactive substances is scientifically linked to their phenological development phases.

Keywords

Surxandarya, medicinal plants, bioecology, Raunkiaer, hemicryptophytes, phenology, secondary metabolites.

**SURXONDARYO VILOYATI DORIVOR O‘SIMLIKLARINING
BIOEKOLOGIK XILMA-XILLIGI VA ULARDAN XALQ TABOBATIDA
FOYDALANISH ISTIQBOLLARI**

Qurbonova Ra'no Abdimo'min qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Ilmiy rahbar Nurmatov.R.T

Anotatsiya: Tadqiqotda Surxondaryo viloyati dorivor florasining sistematik, ekologik va bioekologik xususiyatlari kompleks tahlil qilingan. Hududda dorivor o‘simliklarning oilalar bo‘yicha taqsimlanishi, Raunkiaer tizimi asosida hayotiy shakllari hamda mintaqalar bo‘yicha geografik tarqalishi o‘rganilgan. Biologik faol moddalarning





**“SO‘LIQNI SAQLASHDA YANGI YONDASHUVLAR”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

to‘planishi ularning fenologik rivojlanish fazalari bilan bog‘liqligi ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Surxondaryo, dorivor o‘simliklar, bioekologiya, Raunkiaer, gemikriptofitlar, fenologiya, ikkilamchi metabolitlar.

So‘nggi o‘n yilliklarda global ekologik tizimlarda antropogen bosimning ortishi natijasida tabiiy fitotsenozlarning degradatsiyasi hamda dorivor o‘simliklar areallarining torayishi keskin tus olmoqda. Surxondaryo viloyati floristik jihatdan eng boy hududlardan biri bo‘lib, bu yerda 2191 turga mansub o‘simliklar qayd etilgan va ularning qariyb 18–20 % ini dorivor o‘simliklar tashkil etadi. Biroq, tabiiy zaxiralardan intensiv foydalanish natijasida viloyatda 120 dan ortiq o‘simlik turlari muhofaza talab etuvchi guruhga kirib qolgan. Shu sababli, hududdagi dorivor o‘simliklarning bioekologik xususiyatlarini kompleks o‘rganish botanika va ekologiya fanning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Surxondaryo viloyatida tarqalgan dorivor o‘simliklarning bioekologik xilma-xilligini kompleks o‘rganish va ularning sistematik, ekologik hamda amaliy ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida Surxondaryo viloyatida tarqalgan dorivor o‘simliklar majmuasi olindi. Ish davomida floristik tahlil, dala kuzatuvlari (marshrut usuli), Raunkiaer klassifikatsiyasi asosida hayotiy shakllarni aniqlash hamda ekologik-geobotanik tahlil metodlaridan foydalanildi. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy xulosalar olindi: Surxondaryo viloyati sharoitida dorivor o‘simliklarning asosiy qismi yopiq urug‘lilar (Magnoliophyta) bo‘limiga mansub bo‘lib, asosan Asteraceae (Murakkabguldoshlar), Lamiaceae (Yalpizdoshlar), Fabaceae (Dukkakdoshlar), Apiaceae (Soyabonguldoshlar) va Rosaceae (Ra‘nodoshlar) K. Raunkiaer tasnifi bo‘yicha viloyat dorivor florasida gemikriptofitlar (44,3 %) va terofitlar (32,0 %) ustunlik qiladi. Shuningdek, kriptofitlar (12,1 %), xamefitlar (6,5 %) va fanerofitlar (5,0



**“SOG’LIQNI SAQLASHDA YANGI YONDASHUVLAR”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

%) qayd etilgan. Bu ko‘rsatkichlar hududning adir va tog‘ mintaqalariga xos ekologik sharoitlar ustunligini hamda o‘simliklarning qurg‘oqchil (keskin kontinental) muhitga adaptiv moslashganligini ko‘rsatadi. Dorivor floraning tarqalishi viloyatning vertikal zonalligi va botanik-geografik rayonlari bilan uzviy bog‘liq. Surxon–Sherobod va Bobotog‘ rayonlarining pastki qismlarida kserofit vakillar (*Peganum harmala*, *Capparis spinosa*, *Glycyrrhiza glabra*, *Ferula foetida*) ustun bo‘lsa, Boysun, Ko‘hitang hamda Sangardak–To‘palang kabi tog‘li rayonlarda mezofit va efir moyli o‘simliklar (*Origanum tyttanthum*, *Ziziphora pedicellata*, *Mentha longifolia*, *Rosa canina*, *Crataegus pontica*) keng tarqalgan. Dorivor o‘simliklarning ikkilamchi metabolitlari (alkaloid, flavonoid, efir moylari) ma‘lum bir fenofazada maksimal darajaga yetadi. Masalan, efir moyli o‘simliklar (*Mentha longifolia*, *Origanum tyttanthum*, *Ziziphora pedicellata*) iyun–avgust oylarida, ya‘ni to‘liq gullash fazasida biologik faol moddalarga boy bo‘ladi va aynan shu davrda yig‘ilishi optimal hisoblanadi. *Ferula foetida* va *Ferula kuhistanica* kabi geofitlar esa efemeroid xususiyatga ega bo‘lib, qisqa muddatli bahorgi namlikdan foydalanib, aprel–mayda gullaydi va yozgi qurg‘oqchilik boshlanguncha (may–iyun) urug‘lab, tinim davriga o‘tadi.

Xulosa. Surxondaryo viloyatining o‘ziga xos iqlimiy va geomorfologik sharoitlari dorivor flora tarkibining yuqori darajada differentsiallashtiruvini hamda endemizm ko‘rsatkichini (ayniqsa Boysun va Ko‘hitang tizmalarida) ta‘minlagan. Dorivor o‘simliklarning fenologik fazalari va ekologik guruhlarini kompleks o‘rganish, ularning tabiiy xomashyo zaxiralarini muhofaza qilish hamda farmatsevtika sanoatida oqilona foydalanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.



“SOG’LIQNI SAQLASHDA YANGI YONDASHUVLAR”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026

1. Ibragimov A.J. Surxondaryo viloyati dorivor o‘simliklarining bioekologik xususiyatlari va ulardan xalq tabobatida foydalanish istiqbollari. // Botanika jurnali, Toshkent, 2022. – B. 45–52.

2. Pratov U.P., Nabiyeu M.M. O‘zbekiston o‘simliklari aniqlagichi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 320 b.

3. Tojibaev K.Sh. Flora of the South-West Tian-Shan. – Tashkent: Navruz, 2014. – 280 p.

4. Xolmatov X.X., Axmedov O‘.A. Farmakognoziya: darslik. – Toshkent: Ibn Sino nomidagi nashriyot, 2007. – 412 b.

5. O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi: 1-jild. O‘simliklar va qo‘ziqorinlar. – Toshkent: Chinor ENK, 2019. – 356 b.